



MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№4

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti

professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
Умарова Зумрад Низомиддин қизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: тамойиллар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda monetar siyosatning roli	25
Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
Xamdamov Sardor Farmon o‘g‘li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o‘tish istiqbollari	65
Мурадов Баҳром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo‘yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo‘llari	131
Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta’minlash	142
Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160
Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta’minotini boshqarish usullari	167
Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari	179
Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish	191

Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta’minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
Uralov Elshod Sirojiddin o’g’li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O’zbekistonda mikro, kichik va o’rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323
Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog‘ining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)	332
Jumaniyazov Inojon Turayevich	Suveren fondlar samaradorligini baholashning truman-bagnall metodologiyasi	339
Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich	Davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini o‘tkazishni takomillashtirish	350
Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o‘g‘li	Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari	357
Zokirov Sardor To‘lqin o‘g‘li	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni	362
Asrorov Dalerjon Zafarovich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari	368

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi	374
Axmedova Nafisa Amirddin qizi	O‘zbekistonda agrooziq-ovqat ishlab chiqarish dinamikasi va uni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari	380
Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	Jahon iqtisodiyotida islom moliyasi: asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari	387
Iskandarova Munisa Hasan qizi	Elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solish: xorijiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil	394
Ubaydullayeva Nargiza Ravshanovna	Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni moliyalashtirish usullari va qayta sug‘urta: Markaziy Osiyo sharoiti	404
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Xorazm viloyati eksport salohiyatini baholash: 2010–2024 yillar tendensiyalari va diversifikatsiya imkoniyatlari	415
Gofurjonova Musharrafkhon Shukhratjon kizi	The significance of cultural events and festivals in enhancing tourism attractiveness	424
Xasanova Lola Mamasharifovna	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyotini takomillashtirish	431
Умаров Умид Панжиевич	Жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назоратининг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари	436
Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	445
Eldor Samandarov	Circular economy, digital technologies and sme competitiveness: lessons from Germany for Uzbekistan	453
Shukurullayev Davron Lutfullo o’g’li	O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari	461
Iskandar Samandarov	Data-driven strategic management, artificial intelligence and organizational resilience: lessons from a Czech service firm for Uzbekistan	479
Raxmatullaev Bobir Chorshamiyevich	Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish omillari va takomillashtirish yo‘nalishlari	488
Юсупов Бехзод Юсуп угли	Роль современных финансовых технологий в повышении эффективности банковского сектора Узбекистана: от цифрового охвата к дата-ориентированному корпоративному кредитному процессу	497
Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot loyihalari va tijoratlashtirish faoliyati buxgalteriya hisobi hamda ichki auditini takomillashtirish yo‘nalishlari	511
Abdurahmonov Tohir Shavkatovich	Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarini boshqarishning xorijiy tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish mexanizmlari	517
Karimov Komiljon Ibrogimovich	Tijorat banklarida balans va balansdan tashqari moddalar kredit riskini boshqarishni takomillashtirish	523
Мансуров Обид Зайнидинович	Нефть-газ лойиҳаларида давлат ва инвестор манфаатларини мувофиқлаштиришнинг ижтимоий-молиявий механизмлари	532
Nasretdinova Shaxnoza Saidakmalovna	Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholashning integral indeksi	546
Omonov Elyorbek Umarboy o‘g‘li	Tijorat banklarida faktoring xizmatlari shartlarini mijoz ehtiyojlariga moslashtirish: eksport faktoringida diskontni hisoblash va mijozlarni segmentlash	556
Sheraliyev Javoxirbek Jaxongir o‘g‘li	O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini amalga oshirishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari	563

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

Sheraliyev Javoxirbek Jaxongir o‘g‘li
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti iqtisodiyot va boshqaruv kafedrasi mudiri, PhD, dotsenti v.b.
E-mail: arvi19920804@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan keyin amalga oshirilgan soliq islohotlari sharoitida soliq siyosatini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan tizimli muammolar – soliq-YaIM nisbatining pasayish tendensiyasi, kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yuqori ulushi, soliq imtiyozlari bilan bog‘liq budjet yo‘qotishlari hamda soliq ma’murchiligidagi institutsional va texnologik cheklovlar tahlil qilingan. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki ma’lumotlari tashkil etadi. 2022–2025-yillarga oid rasmiy ma’lumotlar asosida davlat budjeti daromadlarining nominal jihatdan barqaror o‘sishiga qaramay, Soliq qo‘mitasi tomonidan ma’murlashtiriladigan soliq tushumlarining YaIMga nisbati 16,7 foizdan 13,0 foizgacha pasayganligi, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi esa 2024-yildagi 34,8 foizdan 2025-yilda 26,9 foizgacha qisqargan bo‘lsa-da, yashirin iqtisodiyot ulushi 7,9 foiz darajasida barqaror saqlanib qolayotgani asoslab berilgan. Xalqaro tajriba va nazariy yondashuvlar umumlashtirilib, soliq bazasini kengaytirish, soliq imtiyozlarini inventarizatsiya qilish, risklarga asoslangan raqamli ma’murchilikni rivojlantirish va ixtiyoriy soliq intizomini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq siyosati, soliq yuki, soliq-YaIM nisbati, budjet daromadlari, kuzatilmaydigan iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, norasmiy bandlik, soliq imtiyozlari, soliq ma’murchiligi, raqamlashtirish.*

ТЕКУЩИЕ ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Шералиев Жавохирбек Жахонгир угли
Ташкентский международный университет финансового менеджмента и технологий заведующий кафедрой «Экономика и менеджмент», PhD, и.о. доцента
E-mail: arvi19920804@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуются системные проблемы реализации налоговой политики Республики Узбекистан в условиях реформ, начатых после 2017 года: тенденция к снижению соотношения налогов к ВВП, высокая доля ненаблюдаемой (неформальной и теневой) экономики, бюджетные потери от налоговых льгот, а также институциональные и технологические ограничения налогового администрирования. Информационную базу составляют данные Национального комитета по статистике, Министерства экономики и финансов, Налогового комитета Республики Узбекистан, Международного валютного фонда и Всемирного банка. На основе официальных данных за 2022–2025 годы показано, что при устойчивом номинальном росте доходов государственного бюджета отношение налогов, администрируемых Налоговым комитетом, к ВВП снизилось с 16,7 до 13,0 процента; доля ненаблюдаемой экономики сократилась с 34,8 процента в 2024 году до 26,9 процента в 2025 году, однако теневая составляющая стабильно держится на уровне 7,9 процента ВВП. На основе обобщения*

теории и международного опыта разработаны предложения по расширению налоговой базы, пересмотру налоговых льгот, развитию риск-ориентированного цифрового администрирования и повышению добровольного соблюдения налогового законодательства.

Ключевые слова: *налоговая политика, налоговая нагрузка, соотношение налогов к ВВП, доходы бюджета, ненаблюдаемая экономика, теневая экономика, неформальная занятость, налоговые льготы, налоговое администрирование, цифровизация.*

CURRENT PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF TAX POLICY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND WAYS TO ADDRESS THEM

Sheraliyev Javokhirbek Jakhongir ugli
Tashkent International University
of Financial Management and Technologies
Head of the Department of Economics and Management,
PhD, Acting Associate Professor
E-mail: arvi19920804@gmail.com

Abstract. *The article examines the systemic problems arising in the implementation of tax policy in the Republic of Uzbekistan in the context of the reforms launched after 2017, namely the declining tax-to-GDP ratio, the high share of the non-observed (informal and shadow) economy, revenue losses associated with tax expenditures, and institutional and technological constraints in tax administration. The empirical basis comprises data from the National Statistics Committee, the Ministry of Economy and Finance, the Tax Committee of the Republic of Uzbekistan, the International Monetary Fund and the World Bank. Official data for 2022–2025 show that, despite steady nominal growth in state budget revenues, the ratio of taxes administered by the Tax Committee to GDP fell from 16.7 to 13.0 percent; while the share of the non-observed economy declined from 34.8 percent in 2024 to 26.9 percent in 2025, the shadow economy component remained stable at 7.9 percent of GDP. Drawing on theory and international experience, the paper proposes measures to broaden the tax base, review tax expenditures, develop risk-based digital administration and strengthen voluntary compliance.*

Keywords: *tax policy, tax burden, tax-to-GDP ratio, budget revenues, non-observed economy, shadow economy, informal employment, tax expenditures, tax administration, digitalization.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish so‘nggi o‘n yillikda iqtisodiy islohotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yildan keyingi davrda valyuta bozorining liberallashtirilishi, 2019-yilda Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida soliq yukining qisqartirilishi va soliq stavkalarining unifikatsiya qilinishi, 2020-yilda Soliq kodeksining yangi tahrirda kuchga kirishi fiskal tizimni tubdan qayta shakllantirdi. Islohotlarning bosh maqsadi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va shu bilan birga davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta’minlashdan iborat bo‘ldi.

Mazkur islohotlar natijasida budjet daromadlari nominal ifodada sezilarli darajada oshdi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda davlat budjeti daromadlari 359,8 trln so‘mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 31,1 foizga oshgan, konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari esa 502,6 trln so‘mga yetgan; konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2024-yildagi YaIMning 3,3 foizidan 2025-yilda 2,1 foizgacha qisqargan [20]. Biroq nominal o‘sish fonida soliq tizimining tarkibiy zaif nuqtalari saqlanib qolmoqda. XVJ 2025-yildagi IV modda bo‘yicha maslahatlashuv yakunlarida soliq-YaIM nisbatining pasayish tendensiyasini to‘xtatish zarurligini alohida ta’kidlagan [16], Jahon banki esa fiskal konsolidatsiyaning asosiy manbalaridan biri sifatida soliq imtiyozlarini qisqartirishni ko‘rsatgan [18].

Soliq siyosati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biri kuzatilmaydigan iqtisodiyotdir. Milliy statistika qo‘mitasi baholariga ko‘ra, 2024-yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot YaIMning 34,8 foizini (505 trln so‘m) tashkil etgan, shundan yashirin iqtisodiyot 122 trln so‘mni, norasmiy (uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar) sektori esa 383 trln so‘mdan ortiqni tashkil etgan [22]. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 26,9 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, yashirin iqtisodiyot hajmi 147 trln so‘mdan oshib, YaIMning 7,9 foizini tashkil etgan [23]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2024-yil 16-yanvarda makroiqtisodiy barqarorlikka bag‘ishlangan yig‘ilishda yashirin iqtisodiyot tufayli YaIM 135 trln so‘mga, davlat budjeti esa 30 trln so‘mga kam shakllanayotganini, qurilish korxonalarining qariyb 11 mingtasi (41 foizi) hisobotlarida atigi bir nafar xodimni qayd etganini ta’kidlagan edi [21].

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda soliq siyosatini amalga oshirishdagi asosiy muammolarni rasmiy statistik ma’lumotlar asosida aniqlash va ularni hal etishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: soliq siyosati va soliq yuki bo‘yicha nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish; soliq tushumlari va budjet daromadlari dinamikasini baholash; kuzatilmaydigan iqtisodiyotning hajmi va tarmoq tarkibini tahlil qilish; soliq ma’murchiligidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi

Soliqqa tortish nazariyasining klassik asoslari A. Smit tomonidan 1776-yilda e’lon qilingan “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” asarida shakllantirilgan. Muallif soliqqa tortishning to‘rt tamoyili – adolatlilik (soliqning to‘lovchi qobiliyatiga mutanosibligi), aniqlik, to‘lov uchun qulaylik va undirishning tejamkorligini ilgari surgan [1]. Ushbu tamoyillar hozirgi kunda ham soliq tizimlarini baholashning asosiy mezonlari sifatida e’tirof etiladi. R. Masgreyv davlat moliyasining uch funksiyasi – resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqib, soliq siyosatini makroiqtisodiy tartibga solishning muhim vositasi sifatida asoslagan [2].

Soliq yuki va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi A. Laffer nomi bilan bog‘liq. Laffer egri chizig‘i soliq stavkalarining ma’lum chegaradan oshishi soliq bazasining qisqarishi, soliqdan qochish va yashirin faoliyatning kengayishiga olib kelishi orqali budjet tushumlarini kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi [3]. V. Tansi va H. Zi rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq siyosatini shakllantirishda keng soliq bazasi va past stavkalar tamoyiliga tayanish, imtiyozlarni minimallashtirish hamda ma’murlashtirish oson bo‘lgan soliqlarga ustuvorlik berish lozimligini asoslagan [4]. V. Gaspar, L. Xaramillo va F. Vingender esa 75 dan ortiq mamlakat ma’lumotlari asosida soliq-YaIM nisbati taxminan 12,75–15 foiz chegarasidan oshgandan keyin real YaIM o‘sishi sezilarli darajada tezlashishini, ya’ni davlatning barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan minimal “soliq salohiyati” mavjudligini empirik jihatdan isbotlagan [5]. Mazkur xulosa O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki quyida ko‘rsatilganidek, mamlakatda Soliq qo‘mitasi tomonidan ma’murlashtiriladigan soliq tushumlarining YaIMga nisbati aynan shu chegara atrofida joylashgan.

Soliqdan bo‘yin tovlash xatti-harakatining nazariy modeli M. Allingem va A. Sandmo tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra soliq to‘lovchining qarori tekshiruv ehtimoli, jarima miqdori va soliq stavkasiga bog‘liq ravishda shakllanadi [6]. Keyinchalik E. Kirxler va hammualliflari tomonidan taklif etilgan “sirpanchiq yo‘l” (slippery slope) konsepsiyasi soliq intizomi faqat davlatning majburlov kuchiga emas, balki soliq organlariga bo‘lgan ishonchga ham bog‘liqligini, ixtiyoriy va majburiy intizom o‘rtasidagi muvozanat soliq siyosati samaradorligini belgilashini asoslab berdi [7].

Yashirin iqtisodiyotni o‘lchash va uning sabablarini aniqlash borasida F. Shnayder va D. Enste tadqiqotlari fundamental ahamiyatga ega. Ular soliq va ijtimoiy to‘lovlar yuki, tartibga solishning murakkabligi hamda davlat institutlari sifatini yashirin iqtisodiyotning asosiy omillari

sifatida ko‘rsatgan [8]. L. Medina va F. Shnayder 158 mamlakat bo‘yicha 1991–2015-yillar ma’lumotlarini ko‘p indikatorli va ko‘p sababli (MIMIC) model yordamida baholab, jahon bo‘yicha yashirin iqtisodiyotning o‘rtacha ulushi 31,9 foizdan 27,8 foizgacha qisqarganini aniqlagan [9].

Raqamli texnologiyalarning soliq ma’murchiligiga ta’siri so‘nggi yillarda alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. S. Gupta, M. Kin, A. Shoh va J. Verdye tahriri ostidagi XVJ monografiyasida raqamlashtirish axborot assimmetriyasini kamaytirish, real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvi va xavf-xatarlarni tahlil qilish orqali soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlari asoslangan [10]. D. Pomeranz Chili misolida qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjiridagi “qog‘oz izi” (paper trail) mexanizmi soliq to‘lovchilarning o‘zaro nazoratini kuchaytirib, soliq intizomini oshirishini dala tajribasi asosida isbotlagan [11]. O. Okunogbe va F. Santoro esa axborot texnologiyalari soliq salohiyatini oshirishda samarali bo‘lsa-da, uning natijasi institutsional salohiyat, ma’lumotlardan foydalanish madaniyati va soliq to‘lovchilarning ishonchiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [12].

MDH mamlakatlari tajribasida I.A. Mayburov soliq yukini o‘lchash metodologiyasi, uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri va jismoniy shaxslarni daromad bo‘yicha soliqqa tortishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etgan. Uning xulosalariga ko‘ra, soliq yukining maqbul darajasi iqtisodiyot tuzilmasi, soliq ma’murchiligi sifati va davlat xizmatlarining hajmi bilan birgalikda baholanishi lozim [13].

O‘zbekistonlik olimlar ichida soliq nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlarda T.S. Malikov soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalarini, xususan, soliq yukini taqsimlash va soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasini o‘rgangan [14]. Q.A. Yahyoyev soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotini tadqiq etib, soliq yukini optimallashtirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash samarali soliq siyosatining asosiy shartlari ekanligini asoslagan [15]. A. Toshqulov soliq nazariyasining zamonaviy masalalarini [24], B. Radjapov esa soliq munosabatlarining huquqiy asoslarini tahlil qilgan [25].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliq siyosatining samaradorligi faqat soliq stavkalari darajasi bilan emas, balki soliq bazasining kengligi, imtiyozlar tizimining asoslanganligi, ma’murchilik sifati va soliq to‘lovchilarning davlatga bo‘lgan ishonchi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonga oid mavjud tadqiqotlarda 2024–2025-yillardagi yangilangan rasmiy ma’lumotlar, xususan, Milliy statistika qo‘mitasining kuzatilmaydigan iqtisodiyot bo‘yicha baholari va YaIMning qayta hisoblangan ko‘rsatkichlari asosida soliq-YaIM nisbatini kompleks tahlil qilishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida soliq siyosati budjet daromadlari, soliq ma’murchiligi va kuzatilmaydigan iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar majmui sifatida o‘rganildi. Statistik tahlil (dinamika qatorlari, o‘sish sur’atlari, tuzilmaviy ulushlar), nisbiy ko‘rsatkichlar usuli (soliq tushumlari va budjet daromadlarining YaIMga nisbati), qiyosiy tahlil (xalqaro tashkilotlar baholari va xorijiy tajriba bilan solishtirish), shuningdek, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, XVJ va Jahon banki hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda soliq siyosatiga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tahlil davri 2022–2025-yillarni qamrab oladi, kuzatilmaydigan iqtisodiyot bo‘yicha esa 2010-yildan boshlangan ma’lumotlar qatoridan foydalanildi. Shuni alohida qayd etish lozimki, 2025-yil noyabrida Milliy statistika qo‘mitasi 2024-yil YaIMni 1 454,6 trln so‘mdan 1 535,4 trln so‘mgacha (5,6 foizga) qayta hisoblagan [19]; nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda 2024-yil uchun qayta hisoblangan qiymat qo‘llanildi, bu esa avvalgi yillar bilan taqqoslashda ma’lum metodologik farqni yuzaga keltiradi.

Tahlil va natijalar

1. Soliq tushumlari va budjet daromadlari dinamikasi. Rasmiy ma’lumotlar 2022–2025-yillarda davlat budjeti daromadlarining nominal ifodada barqaror o‘sganini ko‘rsatadi (1-jadval). 1-jadval ma’lumotlari muhim qarama-qarshilikni namoyon etadi. Davlat budjeti daromadlari to‘rt yil davomida 1,8 baravarga oshgan bo‘lsa-da, ularning YaIMga nisbati 2022-yildagi 22,7 foizdan 2024-yilda 17,9 foizgacha pasaygan va 2025-yilda 19,5 foizgacha qisman tiklangan. Soliq qo‘mitasi tomonidan ma’murlashtiriladigan soliq tushumlari bo‘yicha pasayish yanada yaqqolroq: 2022-yilda 16,7 foiz bo‘lgan nisbat 2024-yilda 13,0 foizgacha tushgan (YaIMning dastlabki bahosi bo‘yicha – 13,7 foiz). Bu holat soliq tushumlarining o‘sish sur’ati nominal YaIM o‘sishidan ortda qolayotganini, ya’ni soliq tizimining elastikligi birdan past ekanligini ko‘rsatadi. Gaspar va hammualliflarining xulosalari [5] nuqtai nazaridan bu ko‘rsatkich barqaror o‘sishni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan soliq salohiyati chegarasiga yaqinlashib qolganidan dalolat beradi.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti daromadlari va soliq tushumlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
YaIM (joriy narxlarda), trln so‘m	888,3	1 066,6	1 535,4*	1 849,0
Davlat budjeti daromadlari, trln so‘m	201,8**	231,7	274,4**	359,8
Davlat budjeti daromadlarining o‘s ishi, %	22,5	14,8	18,4	31,1
Davlat budjeti daromadlari / YaIM, %	22,7	21,7	17,9	19,5
Soliq qo‘mitasi ma’murlashtiradigan soliq tushumlari, trln so‘m	148,5**	165,9	199,5	–
Soliq tushumlari / YaIM, %	16,7	15,6	13,0	–
Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi, YaIMga nisbatan %	4,0	5,5	3,3	2,1

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ta’kidlash joizki, 2025-yildagi budjet daromadlarining keskin o‘sishi (31,1 foiz) asosan soliq bo‘lmagan omillar, xususan, oltin narxining oshishi bilan bog‘liq: davlat budjeti daromadlarining 87,5 trln so‘mi (24,3 foizi) “boshqa daromadlar” hisobiga shakllangan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar 117,8 trln so‘mni (+29,8 %), egri soliqlar 109,6 trln so‘mni (+24,1 %), resurs va mol-mulk soliqlari 44,9 trln so‘mni (+23,6 %) tashkil etgan [20]. Budjetning tashqi bozor kon’yunkturasiga bog‘liq bo‘lgan manbalarga tayanishi fiskal barqarorlik uchun qo‘shimcha xavf omili hisoblanadi.

Soliq tushumlari tarkibi ham ma’lum nomutanosibliklarni ko‘rsatadi. Masalan, 2023-yilda foyda solig‘i tushumlari 40,8 trln so‘mni tashkil etib, atigi 8,5 foizga, ya’ni rasmiy inflyatsiya darajasidan past sur’atda o‘sgan, aylanmadan olinadigan soliq esa 4 foizga kamaygan; shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 29,9 trln so‘mga yetib, 23 foizga oshgan [28]. Bu kichik biznes sektorida soliq bazasining qisqarishi va kompaniyalar foydasining to‘liq aks ettirilmasligi bilan bog‘liq muammolarni ko‘rsatadi.

Kuzatilmaydigan va yashirin iqtisodiyot. Milliy statistika qo‘mitasi metodologiyasiga ko‘ra, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ikki tarkibiy qismdan iborat: norasmiy sektor (ro‘yxatdan o‘tmagan uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslar faoliyati) hamda yashirin iqtisodiyot (qonuniy, ammo soliq va statistika organlaridan yashiriladigan faoliyat). Bu farqni ajratish metodologik jihatdan muhim, chunki ommaviy axborot vositalarida keltiriladigan “YaIMning 30–35 foizi” ko‘rsatkichi aynan kuzatilmaydigan iqtisodiyotning umumiy hajmini ifodalaydi, yashirin iqtisodiyotning o‘zi esa YaIMning 7–8 foizini tashkil etadi (2–3-jadvallar).

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi va tarkibi

Ko‘rsatkichlar	2024	2025
Kuzatilmaydigan iqtisodiyot, trln. so‘m	505,0	498,0
Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, %	34,8	26,9
Norasmiy sektor, trln. so‘m	383,0	351,0
Norasmiy sektorning YaIMdagi ulushi, %	26,4*	19,0
Yashirin iqtisodiyot, trln. so‘m	122,0	147,0
Yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, %	7,9	7,9

*Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [22; 23]. * Muallif hisob-kitobi (YaIMning dastlabki bahosi bo‘yicha).*

2-jadvaldan ko‘rinadiki, 2025-yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining 7,9 foiz bandga qisqarishi to‘liq norasmiy sektor hisobiga ro‘y bergan. Yashirin iqtisodiyot esa mutlaq hajmda 122 trln so‘mdan 147 trln so‘mgacha oshib, YaIMdagi ulushi o‘zgarmagan. Boshqacha aytganda, norasmiy faoliyatni legallashtirish (o‘zini o‘zi band qilganlar rejimi, taksi agregatorlarini integratsiya qilish va boshqalar) sezilarli natija berayotgan bo‘lsa-da, ro‘yxatdan o‘tgan subyektlarning aylanma va daromadlarini yashirish amaliyotiga qarshi kurash hali yetarli samara bermayapti.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2010–2025-yillarda yashirin iqtisodiyotning mutlaq hajmi qariyb 22 baravarga oshgan. Uning tarkibida xizmatlar sohasi hal qiluvchi o‘rin egallaydi: 2025-yilda yashirin iqtisodiyotning 82,5 foizi (121,2 trln so‘m) xizmatlarga, 11,2 foizi sanoatga va 6,3 foizi qurilishga to‘g‘ri kelgan. Xizmatlar sohasida yashirin faoliyatning tarmoq qo‘shilgan qiymatidagi ulushi o‘n besh yil davomida 12–14 foiz oralig‘ida saqlanib kelmoqda, bu esa ushbu sohada naqd hisob-kitoblar, kichik subyektlarning ko‘pligi va aylanmani nazorat qilishning murakkabligi bilan izohlanadi. Aksincha, qurilishda ko‘rsatkich 14,6 foizdan 7,2 foizgacha ikki baravar qisqargan, bu esa davlat buyurtmalari bo‘yicha elektron xaridlar, elektron hisobvaraq-fakturalar va loyiha-smeta hujjatlarining raqamlashtirilishi samarasi sifatida baholanishi mumkin.

3-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot hajmi va tarmoq tarkibi, mlrd so‘m

Ko‘rsatkichlar	2010	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Yashirin iqtisodiyot hajmi, mlrd. so‘m	6 679,5	45 741,1	62 324,5	76 824,7	97 853,7	121 123,2	147 005,1
Shu jumladan:							
Sanoat, mlrd. so‘m	515,7	7 020,1	11 011,9	10 433,5	11 703,0	14 070,4	16 504,1
Qurilish, mlrd. so‘m	801,4	5 943,3	7 254,5	6 434,4	7 145,8	8 404,1	9 258,8
Xizmatlar, mlrd. so‘m	5 362,5	32 777,7	44 058,1	59 956,8	79 004,9	98 648,6	121 242,3
Yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, %	7,6	6,5	7,2	7,4	7,8	7,9	7,9
Tarmoq qo‘shilgan qiymatidagi ulushi, jumladan:							
Sanoat, mlrd. so‘m	3,7	3,9	5,0	4,2	3,9	3,7	3,5
Qurilish, mlrd. so‘m	14,6	10,5	10,7	7,9	7,7	7,8	7,2
Xizmatlar, mlrd. so‘m	14,2	12,0	13,0	13,7	14,1	13,9	14,1

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Soliq imtiyozlari va soliq bazasining torligi. XVJ baholariga ko‘ra, soliq imtiyozlari O‘zbekistonda soliq bazasini kengaytirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biridir. Jamg‘arma mutaxassislari samarasiz bojxona imtiyozlarini bekor qilish orqali YaIMning 3,2 foizigacha, investitsiya va foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish orqali 1,1

foizgacha, aksiz stavkalarini (alkogol, yoqilg‘i, avtotransport, shakar) oshirish orqali yana 1,1 foizgacha qo‘shimcha daromad olish mumkinligini baholagan (4-jadval) [17].

4-jadval.

XVJ baholari bo‘yicha soliq siyosati choralarining qo‘shimcha daromad salohiyati

Choralar	Qo‘shimcha daromad salohiyati, YaIMga nisbatan %
Samarasiz bojxona imtiyozlarini bekor qilish, yangilarini bermaslik	3,2 gacha
Investitsiya va foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish	1,1 gacha
Alkogol, yoqilg‘i, avtotransport va shakarga aksiz stavkalarini oshirish	1,1 gacha
Jismoniy shaxslar daromadini progressiv soliqqa tortishga o‘tish	Baholanmagan (adolatlilikni oshirish)

Manba: XVJning 2025-yil IV modda bo‘yicha maslahatlashuv materiallari asosida tuzilgan.

Imtiyozlar tizimining shaffof emasligi, ularning iqtisodiy samaradorligi muntazam baholanmasligi va budjetda “soliq xarajatlari” sifatida aks ettirilmasligi teng raqobat muhitini buzadi va soliq yukini intizomli soliq to‘lovchilar zimmasiga o‘tkazadi. Bundan tashqari, XVJ materiallarida qayd etilganidek, undirilmagan soliq qarzdorligi 8,5 trln so‘mga yetgani [17] soliq undiruvi samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda soliq ma’murchiligini raqamlashtirishda sezilarli natijalarga erishildi. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 60 ta davlat organi bilan 238 yo‘nalishda elektron ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan, raqamli markirovka tizimida 3,5 ming subyekt ishtirok etib, 8,2 mlrd dona markirovkalangan mahsulot ishlab chiqarilgan; 155 ta taksi agregatori integratsiya qilinishi natijasida 497,9 ming nafar haydovchi o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida legallashtirilgan [26]. 2025-yilda aholiga keshbek sifatida 1,5 trln so‘m qaytarilgan, fiskal cheklar soni 56,7 foizga, ular bo‘yicha to‘lovlar hajmi 43,9 foizga oshgan [30]. 2026-yil 1-iyul holatiga QQS to‘lovchilari soni 270,7 mingtaga yetib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 17,5 foizga oshgan [31].

Shu bilan birga, raqamli vositalarning o‘zi yangi risklarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, 2026-yilda Andijon viloyatida 1,1 trln so‘mlik soxta elektron hisobvaraq-fakturalar orqali keshbek tizimidan 35 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘ noqonuniy o‘zlashtirilgani aniqlangan [30]. Bu holat Okunogbe va Santoro [12] ta’kidlaganidek, texnologik yechimlar risklarni tahlil qilish salohiyati va ma’lumotlarni tekshirish mexanizmlari bilan birga joriy etilmasa, kutilgan natijani bermasligini tasdiqlaydi. Soliq ma’murchiligidagi asosiy muammolar 5-jadvalda umumlashtirilgan.

5-jadval.

O‘zbekiston soliq tizimi va soliq ma’murchiligidagi asosiy muammolar va ularning oqibatlari

Muammolar	Iqtisodiy va fiskal oqibatlari
Yashirin iqtisodiyotning barqaror ulushi (YaIMning 7,9 %)	Budjetga har yili qariyb 30 trln so‘m kam tushum; halol tadbirkorlar uchun raqobat sharoitining yomonlashuvi
Norasmiy bandlik (YaIMning 19 % norasmiy sektorda yaratiladi)	Daromad solig‘i va ijtimoiy to‘lovlar bazasining torayishi; pensiya tizimiga bosim
Soliq imtiyozlarining ko‘pligi va samaradorligi baholanmasligi	Budjet yo‘qotishlari (XVJ baholari bo‘yicha qo‘shimcha daromad salohiyati YaIMning 5 foizidan ortiq); raqobat muhitining buzilishi
Soliq tushumlari o‘sishining nominal YaIMdan ortda qolishi	Soliq-YaIM nisbatining pasayishi; tashqi qarzga ehtiyojning ortishi
Budjetning oltin va boshqa xomashyo daromadlariga bog‘liqligi	Tashqi kon’yunktura o‘zgarishiga nisbatan fiskal zaiflik
Raqamli tizimlardagi firibgarlik sxemalari (soxta hisobvaraq-fakturalar, keshbek)	Budjet mablag‘larining noqonuniy o‘zlashtirilishi; tizimga ishonchning pasayishi
Hududlarda raqamli infratuzilma va kadrlar salohiyatining notekisligi	Elektron xizmatlardan foydalanishning cheklanishi; mahalliy budjetlar taqchilligi

Manba: Muallif tomonidan manbalar asosida tuzilgan.

Hududiy jihatdan soliq tushumlari va budjet ijrosi sezilarli farqlanadi. 2024-yilda soliq tushumlarining eng yuqori o‘sishi Toshkent shahri (26,7 %), Toshkent viloyati (22,9 %), Xorazm (19,5 %) va Samarqand (17,7 %) viloyatlarida qayd etilgan [26]. Shu bilan birga, 2025-yilda mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi umumiy farq 37,9 trln so‘mni tashkil etgan, eng katta taqchillik Farg‘ona (4,39 trln so‘m), Andijon (3,56 trln so‘m) va Samarqand (3,41 trln so‘m) viloyatlarida kuzatilgan [20]. Bu holat hududlarning o‘z daromad bazasini kengaytirish, xususan, mol-mulk va yer soliqlarini ma’murlashtirishni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

6-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda amal qiluvchi asosiy soliq stavkalari

Soliq turi	Stavka
Foyda solig‘i (bazaviy stavka)	15 %
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	12 %
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 %
Ijtimoiy soliq	12 % (budjet tashkilotlari uchun 25 %)
Aylanmadan olinadigan soliq (bazaviy stavka)	4 %
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,5 %
Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yer solig‘i (normativ qiymatga nisbatan)	0,95 %

Manba: “2026-yilga mo‘ljallangan soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari” asosida tuzilgan [32].

Davlatning soliq siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar. 2026-yilga mo‘ljallangan soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarida soliq tizimining barqarorligi va bashorat qilinuvchanligini ta’minlash maqsadida asosiy soliq stavkalari o‘zgarishsiz saqlab qolingan (6-jadval) [32]. Shuningdek, mikrofirma va kichik korxonalar uchun hisobotlarni kechiktirib topshirganlik uchun jarimalar kamaytirilgan: oldingi uch oyda hisobotlarni o‘z vaqtida topshirgan subyektlar keyingi hisobotni 5 ish kunigacha kechiktirgan taqdirda jarimaga tortilmaydi [32].

O‘rta muddatli istiqbolda soliq ma’murchiligini tubdan isloh qilish rejalashtirilgan. Mavjud rejalarga ko‘ra, 2030-yilgacha soliq tushumlarini 491,5 trln so‘mga yetkazish, kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyot ulushini 28 foizdan 19,6 foizgacha qisqartirish, “tekshiruvdan – servisga” tamoyili asosida soliq to‘lovchilarni risk darajasiga ko‘ra “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratish, yagona soliq hisob raqamini joriy etish va olti turdagi hisobotni avtomatik shakllantirish ko‘zda tutilmoqda [33]. 2025-yil 10-dekabrdagi Prezident farmoniga muvofiq, 2030-yilgacha savdo va xizmatlar sohasida aholi naqd pulsiz to‘lovlarining ulushini 75 foizga yetkazish belgilangan [34]. Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2027–2029-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasida esa kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 2019-yildagi qariyb 50 foizdan 2025-yilda 25 foizgacha qisqargani qayd etilib, 2030-yilgacha uni yana 1,3 baravar kamaytirish maqsadi qo‘yilgan [34].

Xulosa

Tahlil natijalari O‘zbekistonda soliq siyosatining asosiy muammosi soliq stavkalarining yuqoriligida emas, balki soliq bazasining torligi va soliq tushumlarining iqtisodiy o‘sishga mos ravishda oshmayotganida ekanligini ko‘rsatadi. Bu xulosa Tansi va Zi [4] hamda XVJ [16] tavsiyalariga mos keladi. Aniqlangan muammolarni hal etish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi.

Birinchidan, soliq imtiyozlarini tizimli inventarizatsiya qilish. Har yili budjet qonuni loyihasi bilan birga “soliq xarajatlari to‘g‘risidagi hisobot”ni e’lon qilish, har bir imtiyozning maqsadi, muddati va iqtisodiy samarasini baholash, belgilangan maqsadlarga erishmagan imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilish maqsadga muvofiq. XVJ baholariga ko‘ra, faqat

bojxona va foyda solig‘i imtiyozlarini qayta ko‘rib chiqish YaIMning 4 foizdan ortiq qo‘shimcha daromad salohiyatiga ega [17].

Ikkinchidan, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashni ro‘yxatdan o‘tgan subyektlarning aylanmasini yashirishga qaratish. 2-jadval tahlili yashirin iqtisodiyot ulushi o‘zgarmayotganini ko‘rsatdi. Shu bois, elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, raqamli markirovka, bojxona va bank ma’lumotlarini yagona tahliliy platformada integratsiya qilish, sun’iy intellekt asosida aylanma va xarajatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash, “bir kunlik firmalar” va soxta hisobvaraq-fakturalarni real vaqt rejimida bloklash mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunda Pomeranz [11] asoslagan QQS zanjiridagi o‘zaro nazorat effektidan to‘liq foydalanish muhim.

Uchinchidan, risklarga asoslangan va servisga yo‘naltirilgan soliq ma’murchiligi. Soliq to‘lovchilarni risk darajasi bo‘yicha toifalash, past riskli subyektlar uchun tekshiruvlarni minimallashtirish va ularga tezkor QQS qaytarish kabi rag‘batlar berish Kirxlerning “sirpanchiq yo‘l” konsepsiyasi [7] nuqtai nazaridan ixtiyoriy soliq intizomini oshiradi. Bunda soliq to‘lovchilar uchun hisobotlarni avtomatik shakllantirish va yagona soliq hisob raqamini joriy etish ma’muriy xarajatlarni kamaytiradi.

To‘rtinchidan, norasmiy bandlikni legallashtirishni rag‘batlantirish. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar rejimining afzalliklarini kengaytirish, rasmiy bandlikni ijtimoiy kafolatlar (pensiya staji, ijtimoiy sug‘urta, kreditga kirish imkoniyati) bilan bog‘lash, kichik biznesdan mikrofirmalarga va undan QQS to‘lovchi maqomiga o‘tishda “soliq jarligi” effektini yumshatuvchi o‘tish davri mexanizmlarini joriy etish lozim.

Beshinchidan, soliq tizimining adolatliligini oshirish. XVJ tavsiyalarini inobatga olgan holda, yuqori daromadlar uchun mo‘tadil progressiv shkalani bosqichma-bosqich joriy etish masalasini ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini puxta baholagan holda ko‘rib chiqish, salomatlik va ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mahsulotlarga aksiz siyosatini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, budjet daromadlarining xomashyo omillariga bog‘liqligini kamaytirish. Oltin va boshqa tovar narxlarining yuqoriligi hisobiga olingan qo‘shimcha daromadlarni joriy xarajatlarga emas, balki qarzni qisqartirish yoki barqarorlashtirish zaxiralariga yo‘naltirish fiskal qoida darajasida mustahkamlanishi lozim.

Yettinchidan, hududiy soliq salohiyatini oshirish. Chekka hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mol-mulk va yer soliqlarini kadastr ma’lumotlari bilan integratsiya qilish, mahalliy kengashlarning soliq bazasini kengaytirishdan manfaatdorligini oshirish hamda soliq organlari xodimlarining malakasini tizimli oshirish zarur.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, 2022–2025-yillarda O‘zbekistonda davlat budjeti daromadlari nominal ifodada 1,8 baravar oshgan bo‘lsa-da, Soliq qo‘mitasi tomonidan ma’murlashtiriladigan soliq tushumlarining YaIMga nisbati 16,7 foizdan 13,0 foizgacha pasaygan. Bu holat soliq tushumlarining iqtisodiy o‘sishdan ortda qolayotganini va soliq salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 2024-yildagi 34,8 foizdan 2025-yilda 26,9 foizgacha qisqargan bo‘lsa-da, bu pasayish asosan norasmiy sektorni legallashtirish hisobiga ta’minlangan; yashirin iqtisodiyot esa YaIMning 7,9 foizi darajasida saqlanib, uning 82,5 foizi xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Demak, kelgusida asosiy e’tiborni ro‘yxatdan o‘tgan subyektlarning aylanmasini yashirish amaliyotiga qarshi kurashga qaratish lozim.

Uchinchidan, soliq imtiyozlarining ko‘pligi va ularning samaradorligi baholanmasligi soliq bazasini toraytiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, XVJ baholariga ko‘ra imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish YaIMning bir necha foizi miqdorida qo‘shimcha daromad salohiyatiga ega.

To‘rtinchidan, soliq ma’murchiligini raqamlashtirish sezilarli natijalar bergan bo‘lsa-da, soxta hisobvaraq-fakturalar va keshbek tizimidagi firibgarlik holatlari raqamli vositalarni risk-tahlil salohiyati bilan birga rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, soliq siyosatini takomillashtirish soliq stavkalarini oshirish orqali emas,

balki soliq bazasini kengaytirish, imtiyozlarni optimallashtirish, risklarga asoslangan raqamli ma’murchilikni rivojlantirish va soliq to‘lovchilarning davlatga ishonchini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi lozim. Asosiy soliq stavkalarining barqarorligi va soliq siyosatining bashorat qilinuvchanligi investitsion muhitni yaxshilab, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam fiskal asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. – Book V, Chapter II.
2. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 628 p.
3. Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future // Backgrounder. – The Heritage Foundation, 2004. – No. 1765.
4. Tanzi V., Zee H.H. Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries // National Tax Journal. – 2000. – Vol. 53, No. 2. – P. 299–322.
5. Gaspar V., Jaramillo L., Wingender P. Tax Capacity and Growth: Is there a Tipping Point? – IMF Working Paper WP/16/234. – Washington D.C.: IMF, 2016.
6. Allingham M.G., Sandmo A. Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis // Journal of Public Economics. – 1972. – Vol. 1, No. 3–4. – P. 323–338.
7. Kirchler E., Hoelzl E., Wahl I. Enforced versus Voluntary Tax Compliance: The “Slippery Slope” Framework // Journal of Economic Psychology. – 2008. – Vol. 29, No. 2. – P. 210–225.
8. Schneider F., Enste D.H. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences // Journal of Economic Literature. – 2000. – Vol. 38, No. 1. – P. 77–114.
9. Medina L., Schneider F. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? – IMF Working Paper WP/18/17. – Washington D.C.: IMF, 2018.
10. Gupta S., Keen M., Shah A., Verdier G. (eds.). Digital Revolutions in Public Finance. – Washington D.C.: International Monetary Fund, 2017.
11. Pomeranz D. No Taxation without Information: Deterrence and Self-Enforcement in the Value Added Tax // American Economic Review. – 2015. – Vol. 105, No. 8. – P. 2539–2569.
12. Okunogbe O., Santoro F. The Promise and Limitations of Information Technology for Tax Mobilization // The World Bank Research Observer. – 2023. – Vol. 38, No. 2. – P. 295–324.
13. Майбуров И.А., Иванов Ю.Б. (ред.). Теоретико-методологический конструктив индивидуального подоходного налогообложения: монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2021. – 327 с.
14. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002.
15. Yahyoyev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.
16. IMF. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation – Press Release; Staff Report. – IMF Country Report No. 25/143. – Washington D.C., 2025. URL: https://www.imf.org/en/news/articles/2025/06/18/pr-25206-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2025-article-iv-consultation
17. IMF recommends Uzbekistan adopt progressive income tax, end inefficient customs exemptions
18. World Bank. Macro Poverty Outlook: Uzbekistan. – Washington D.C., October 2024.
22. A Third of Uzbekistan’s GDP Comes from the Informal and Shadow Economy (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari)
23. 2025-yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari)
24. Toshqulov A. Soliq nazariyasi. – T.: History and Page, 2022. – 368 b.
25. Radjapov B. Soliq huquqi. – T.: Lesson Press, 2021. – 236 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

26. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. “Soliq qo‘mitasi faoliyatining 2024-yildagi yakunlari: natija va kelgusi rejalar”.

29. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Statistika integrallashgan axborot tizimi. URL: https://siat.stat.uz/

30. Fiskal cheklar va keshbek: 2025–2026-yillar ma’lumotlari (Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari)